



**NAMANGAN VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**NAMANGAN  
VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL  
YANVAR-AVGUST**



2023-yilning yanvar-avgust oyida, Namangan viloyatida jami **4534,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **104,7 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi: Yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




# 2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



## Yillar kesimida soni



## Hududlar kesimida



835

Bino va inshootlar  
qurilishi

248

Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

555

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yil bilan solishtirganda 68,1 foizni tashkil etgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 51,0 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,1 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 33,9 foiz ulushni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.09.2022- y.	01.09.2023- y.	
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2405</b>	<b>1638</b>	<b>68,1</b>

*tumanlar:*

<b>Mingbuloq</b>	80	54	67,5
<b>Kosonsoy</b>	255	164	64,3
<b>Namangan</b>	119	72	60,5
<b>Norin</b>	134	96	71,6
<b>Pop</b>	116	99	85,3
<b>To'raqo'rg'on</b>	106	72	68,0
<b>Uychi</b>	241	165	68,5
<b>Uchqo'rg'on</b>	174	123	70,7
<b>Chortoq</b>	170	110	64,7
<b>Chust</b>	174	126	72,4
<b>Yangiqo'rg'on</b>	103	85	82,5
<b>Namangan shahar</b>	733	472	64,4
shundan			
<b>Davlatobod</b>	209	134	64,1
<b>Yangi Namangan</b>	163	117	71,8



# 2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Namangan sh.(28,7)



Uychi (10,3)



Kosonsoy (8,4)



- Namangan shahar
- Minbuloq
- Kosonsoy
- Namangan
- Norin
- Pop
- To'raqo'rg'on
- Uychi
- Uchqo'rg'on
- Chortoq
- Chust
- Yangiqo'rg'on



## Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-avgust uchun


	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Namangan viloyati</b>	<b>4534174,2</b>	<b>328196,6</b>	<b>2789421,5</b>	<b>1416556,1</b>
<i>tumanlar:</i>				
<b>Mingbuloq</b>	146960,1	0,0	83842,9	63117,2
<b>Kosonsoy</b>	381975,3	54242,5	143090,3	184642,5
<b>Namangan</b>	346178,7	0,0	244060,4	102118,3
<b>Norin</b>	236685,1	0,0	129262,9	107422,2
<b>Pop</b>	293742,2	85130,5	138467,5	70144,2
<b>To'raqo'rg'on</b>	236501,0	17600,0	135772,2	83128,8
<b>Uychi</b>	464910,5	54730,5	309579,8	100600,2
<b>Uchqo'rg'on</b>	327536,6	0,0	187097,4	140439,2
<b>Chortoq</b>	313806,8	0,0	205471,5	108335,3
<b>Chust</b>	246606,6	0,0	111888,1	134718,5
<b>Yangiqo'rg'on</b>	238261,6	0,0	116938,8	121322,8
<b>Namangan sh.</b>	<b>1301009,7</b>	<b>116493,1</b>	<b>983949,7</b>	<b>200566,9</b>
<b>shundan</b>				
<b>Davlatobod</b>	449878,0	0,0	397754,4	52123,6
<b>Yangi Namangan</b>	321737,4	44449,6	187587,5	89700,3

2023- yilning yanvar-avgust oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 328196,6 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 93,0 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,7 % punktga kamayib 7,2 % ni tashkil etdi.


# Qurilish ishlari 2023- yil yanvar- avgust uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Pop tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 29,0 %) ga to'g'ri keldi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 61,5 % i to'g'ri kelib, 2022- yil ko'rsatkichiga nisbatan 3,0 % punktga kopaygan. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 107,1 % ni tashkil etgan holda 2789421,5 mln. so'm miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



61,5

2023- yil  
yanvar-avgust

58,5

2022- yil  
yanvar-avgust




**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Namangan shahri (983949,7 mln. so'm hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 75,6 %), Namangan tumani (244060,3 mln. so'm yoki 70,5 %), Uychi tumani (309579,8 mln. so'm yoki 66,6 %)ga to'g'ri keldi.




## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **31,3 %** ni tashkil etdi yoki **1416556,1 mln. so'm** miqdorida qayd etildi. 2022- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **103,0 %** ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 149349,1 mln. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 4384825,0 mln. so'm qurilish ishlari bajarildi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi  
2023- yil yanvar-avgust oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **76,7 %** yoki **3477908,6** mln. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**9,4 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 328196,6 mln. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **9,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1824716,1 mln. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **52,5 %** ni tashkil etdi

**52,5 %**

**38,1 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1324995,9** mln. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **38,1 %** ni tashkil etdi.



# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-avgust oylarida


	Qurilish ishlari, mln. so'm	o'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
<b>Namangan viloyati</b>	<b>4534174,2</b>	<b>104,7</b>	<b>3477908,6</b>
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	146960,08	122,1	107815,2
Kosonsoy	381975,30	109,3	274754,8
Namangan	346178,63	109,9	271276,9
Norin	236685,13	129,4	170417,5
Pop	293742,20	89,9	222586,2
To'raqo'rg'on	236501,03	98,9	212152,4
Uychi	464910,52	90,1	340835,0
Uchqo'rg'on	327536,63	98,8	260843,1
Chortoq	313806,82	98,4	250409,4
Chust	246606,60	99,4	187807,1
Yangiqo'rg'on	238261,58	113,4	166939,6
<b>Namangan shahri</b> shundan	<b>1301009,65</b>	<b>111,0</b>	<b>1012071,4</b>
Davlatobod	449878,0	100,1	326923,4
Yangi Namangan	321737,4	100,5	264321,1

*\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,7 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,5 % punktga kamaygan.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga kamayib, 52,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga ko'payib, 43,8 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 43,7 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 17,1 % punktga ko'paygan.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 56,3 % (17,1% punktga kamaygan) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi (0,0% punktga kamaygan).

## ulushi % da



2022- yil  
yanvar-avgust



2023- yil  
yanvar-avgust

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 11,5 % punktga kamaygan va 0,5 % ni tashkil etdi. Qolgan 99,5 % ni kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilga nisbatan 11,5 % punktga ko'paygan

ulushi % da

12,1

2022- yil  
yanvar-avgust

2022- yil  
yanvar-avgust

87,9

0,5

2023- yil  
yanvar-avgust

2023- yil  
yanvar-avgust

99,5

Yirik qurilish  
tashkilotlari  
ulushi

Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar  
ulushi



# Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-avgustda



	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	o'sish sur'ati, % da
<b>Namangan viloyati</b>	1504,9	108,3
<i>tumanlar:</i>		
<b>Mingbuloq</b>	1091,0	127,4
<b>Kosonsoy</b>	1706,8	114,3
<b>Namangan</b>	1829,7	113,4
<b>Norin</b>	1366,5	114,9
<b>Pop</b>	1264,5	92,8
<b>To'raqo'rg'on</b>	982,1	102,3
<b>Uychi</b>	2036,4	98,8
<b>Uchqo'rg'on</b>	1794,7	103,2
<b>Chortoq</b>	1485,8	102,2
<b>Chust</b>	877,6	104,7
<b>Yangiqo'rg'on</b>	1021,3	118,6
<b>Namangan shahri</b>	1906,0	113,3

# Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-avgustda



Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Uychi tumani – 2036,4 ming so'm yoki, 2022- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 98,8 %, undan keyin mos ravishda Namangan shahar – 1906,0 ming so'm (yoki 113,3 %), Uchqo'rg'on tumani – 1794,7 ming so'm (yoki 103,2 %) tumanlari egalladi.

**Namangan viloyati Investitsiyalar va  
qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(69) 227-84-85**